

HUMANS SHAXSIY HISOBVARAQ BALANSINI TO'LDIRISH QOIDALARI

Joriy Humans shaxsiy hisob balansini to'ldirish Qoidalari «Humans» MCHJning ommaviy ofertasi sanalib quyidagi manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh. Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 2B – uy, INN 306624 856, telefon: 1234 (keyinchalik – Humans) nomuayyan shaxslar doirasiga yo'naltirilgan bo'lib, quyida bayon etilgan tartibda Mijoz roziligidan boshlab To'lovchi hamda Humans o'rtasidagi shartnomaga aylanadi.

ATAMALAR

- 1.1. **Mijoz** – Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan va unga muvofiq Humans Mijozga **abonent raqamini** berib, Mijoz uchun Shaxsiy hisobvaraqa ochgan.
- 1.2. **Bank kartasi (Karta)** - o'zaro tuzilgan shartnoma asosida Karta Egasiga emitent – bank tomonidan chiqarilgan xalqaro yoki milliy to'lov tizimlari bank kartasi deb ataladi.
- 1.3. **Karta Egasi** – emitent bank bilan shartnoma tuzgan va ushbu shartnoma asosida unga Bank kartasi chiqarilgan **shaxs**.
- 1.4. **Humans shaxsiy hisobi (Shaxsiy hisob)** – Humans va Mijoz o'rtasida tuzilgan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Shartnomaga ko'ra, aloqa xizmatlari uchun pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi ma'lumot aks ettirilgan Humans avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimida tahliliy hisoblar registri.
- 1.5. **Humans mobil ilovasi (Ilova)** – qurilmalar uchun belgilangan dasturiy ta'minot va To'lovchiga Shaxsiy hisob balansini to'ldirish imkonini beruvchi

Humans.uz mobil qurilmalar uchun ilova. Ilovani qurilmaga o'rnatish tartibi to'g'risidagi ma'lumot Saytda keltirilgan.

1.6. **To'lovni amalga oshiruvchi** – Bank kartasini qo'llagan holda Saytda yoki Mobil ilovada naqd pulsiz to'lovni amalga oshirish orqali Shaxsiy hisobvarag'ini to'ldirgan shaxs.

1.7. **Shaxsiy hisobni to'ldirish (To'ldirish)** – Sayt yoki Ilovadan foydalangan holda naqd pulsiz to'lovni amalga oshirish orqali Humans tomonidan Mijozga ko'rsatiladigan aloqa xizmatlari uchun avvaldan to'lov (avans) o'tkazish bo'yicha To'lovchi harakatlari.

1.8. **Qoidalar** – Humans shaxsiy hisobini to'ldirish bo'yicha joriy Qoidalar.

1.9. **To'ldirish uchun rekvizitlar** – Sayt yoki Mobil ilovada joylashtirilgan To'ldirish shaklida ko'zda tutilgan rekvizitlar va xususan, To'ldirish amalga oshiriladigan Mijozning raqami, To'ldirish summasi, to'lov amalga oshiriladigan Bank kartasi rekvizitlari. To'ldirish uchun shakl boshqa majburiy rekvizitlarni ham ko'zda tutishi mumkin.

1.10. **Sayt** – Humans'ning rasmiy sayti www.humans.uz.

1.11. **Chardjбек** – Karta Egasi e'tirozi asosida Bank kartasi vositasida amalga oshirilgan jarayonlarni emitent-bank tomonidan haq-huquq talashish jarayoni

1.12. Joriy Qoidalarda foydalaniladigan boshqa atamalar Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida belgilangan ma'noda qo'llaniladi.

2. QOIDALARNING AMALI

2.1. Joriy Qoidalar To'lovchilar tomonidan Mijoz Shaxsiy hisobvaraқ balansining to'ldirilishi tartibini boshqaradi. Humans to'lovni amalga oshirish, to'lovlarni qayta ishlab chiqish va boshqa shu kabi xizmatlar bo'yicha to'lov yoki bank xizmatlarini ko'rsatmaydi. Bunday xizmatlar Humans bilan tuzilgan shartnoma asosida va

tegishli litsenziyalarga ega bo'lgan banklar yoki hisob tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi.

2.2. Saytda va (yoki) Mobil ilovada To'ldirish uchun Rekvizitlarni kiritish bo'yicha amaliyotni bajarishi To'lovchining joriy Qoidalar bilan tanishib chiqqanini tasdiqlaydi va To'lovchi tomonidan joriy Qoidalarga to'liq, shartsiz roziligidan dalolat beradi.

2.3. To'lovchining joriy Qoidalarda bayon qilingan shartlardan istalgani bilan norozilik holatida To'lovchi To'ldirish amaliyotini amalga oshirmasligi lozim.

2.4. To'ldirish jarayonini har bir To'lovchi amalga oshirishi mumkin, faqat To'ldirish imkoniyati to'xtatilgani, Qoidaning 4.2.2-bandiga muvofiq, shuningdek Humans'ning joriy Qoidalar amaliyotlari va To'ldirish imkoniyatlari yopilishi holatlari bundan mustasno.

3. TO'LDIRISH TARTIBI

3.1. To'lovchi tomonidan to'lov Saytda va (yoki) Mobil ilovada amalga oshirilishi mumkin.

3.2. To'ldirish shakliga Rekvizitlarni kiritishda To'lovchi mustaqil ravishda Mijozning o'z raqami, Bank kartasirekvizitlari, To'ldirish summasini nazorat qiladi va To'ldirish uchun boshqa zarur Rekvizitlarning aniqligi va to'g'riligi uchun javobgardir. To'lov jarayonini yakunlash oldidan To'lovchi To'ldirish uchun o'zi kiritgan Rekvizitlarni diqqat bilanqayta tekshirishi lozim.

3.3. Agar To'lovchi bilan Karta Egasi farqli chiqsa, mos kelmasa, u holda To'lovchi Karta Egasi tomonidan To'ldirishjarayoni uchun vakolatlangani, Karta rekvizitlari To'lovchi tarafidan Karta Egasidan ruxsatsiz olinmaganligi, xususan, Karta o'g'irlanmaganligi, karta rekvizitlaridan noqoniy nusxa ko'chirib olinmagani

yoki Karta egasini aldab, qing'iryo'llar yoki firibgarlik bilan olinmaganligiga kafolat beradi va h.k.

3.4. To'lovchi To'ldirish shaklida barcha talab etilgan Rekvizitlarni kiritishda, shu bilan birga "Hisobni to'ldirish" tugmasi (yoki shunga o'xshash nomli tugma)ni bosishda, Bank kartasi bo'yicha jarayon tugallanganini tasdiqlovchi kodkiritilganda (emitent-bank, to'lov amallarini bajaradigan tashkilot va (yoki) Humans tarafidan bu tasdiq so'ralganholatlarda) va Bank Kartasidan pul mablag'lari o'tkazilgan vaqtdan boshlab To'lov yakunlangan deb hisoblanadi.

3.5. Shaxsiy hisob balansini to'ldirish Humans tomonidan To'ldirish tugallangan vaqtdan boshlab bir sutka (24 soat) davomida amalga oshiriladi.

3.6. Qoidaning 3.4.-bandlarida ko'rsatilganidek, To'ldirish yakunlanganidan keyin, To'lovchi To'ldirish uchun mablag' summasini qaytarishni talab qilish yoki shu jumladan mijoz raqami yoki To'ldirish summasini noto'g'ri ko'rsatganligi asosida To'ldirishni bekor qilish huquqiga ega emas.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

4.1. Humans majburiyatlari:

4.1.1. Texnik imkoniyati mavjudligida Humans To'ldirish jarayonini amalga oshirish uchun Sayt va Mobil ilovafaoliyatini ta'minlashni zimmasiga oladi;

4.1.2. Humans Qoidalarda belgilangan shartlar va tartibda To'lovchilarga To'ldirishni amalga oshirish imkoniyatini berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. Humans huquqlari:

4.2.1. Humans bir tomonlama tartibda joriy Qoidalarga o'zgartirishlar kiritishga haqli;

4.2.2. Humans quyidagi holatlarda bir tomonlama tartibda ma'lum bir Shaxsiy hisobni to'ldirishni rad etishga haqli:

4.2.2.1. To'lovchiga nisbatan joriy Qoidalar buzilish holatlari aniqlangan bo'lsa, agar hujjatlarni ko'rib chiqish va axborotlar tahlili natijasida Humans To'lovchi xatti-harakatlarida huquqlarini suiste'mol qilganlik va insofsizlik ahloqi alomatlari bo'lgani to'g'risidagi xulosaga kelganda;

4.2.2.2. To'ldirish amalga oshirilayotgan Karta Egasi To'lov bo'lganini rad etsa (yoki amalga oshirilgan To'ldirishlar yuzasidan rad etgan bo'lsa) va (yoki) u tarafidan To'ldirishga ruxsat berilganini inkor qilgan holda;

4.2.2.3. Ma'lum bir Shaxsiy hisob yoki Mijoz borasida To'ldirish jarayoni bo'yicha Chardjbek olingan bo'lsa;

4.2.2.4. Boshqa hollarda Humans tomonidan gumon qilinishga asoslari yetarlicha bo'lib, quyidagi shubhali tuyulgan harakatlar amalga oshirilsa: To'ldirish Karta Egasining ruxsatisiz yoki qonunga zid harakatlarni amalga oshirish maqsadlarida, yoki To'ldirish bo'yicha jarayonlar shubhali tusga ega bo'lganda, yoxud To'lovchilar tomonidan amalga oshiriladigan To'lovlar odat doirasidan chiqayotganida;

4.2.3. Shuningdek, Qoidalarning 4.2.2.1 – 4.2.2.4-bandlarida bayon qilingan vaziyatlar yuzaga kelsa, Humans To'ldirish jarayonining barcha tafsilotlarini oydinlashtirish yoki Karta Egasidan tasdiqnoma olmaguniga qadar Shaxsiy hisobni To'ldirishni vaqtincha to'xtatib turishi mumkin;

4.2.4. Humans To'lovchi va (yoki) Mijozdan To'lovni amalga oshirishni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumot, Karta Egasidan To'lovga rozilik bildirishi va To'lovchining harakatlari vijdonan amalga oshirilayotganini tasdiqlashni so'rash huquqiga ega. So'ralgan hujjatlar va ma'lumotlarni To'lovchi tegishli so'rov olingan muddatdan boshlab 5 kundan kechiktirmay taqdim etishi shart.

4.3. To'lovchi majburiyatlari:

4.3.1 To'lovchi Qoidalarning shartlari, To'lovni amalga oshirish shartlari, To'lov uchun Rekvizitlar kiritish tartibi bilandiqqat-e'tibor bilan tanishib chiqishi, shuningdek, Saytda avval e'lon qilingan Qoidalardagi o'zgarishlarni muntazamkuzatib borishi lozim;

4.3.2 To'liq hajmda joriy Qoidalardagi talablarga amal qilishi lozim.

4.4 To'lovchi huquqlari:

4.4.1 To'ldirish shartlari, Qoidalar shartlari to'g'risida ishonchli ma'lumot olishi;

4.4.2 Muammolar yuzaga kelganda Mobil ilova yoki Saytdagi maxsus bo'lim orqali qo'llab-quvvatlash chatiga murojaat qilishi;

4.4.3 To'lovchi haq-huquqlari buzilishi holatlarida Humansga e'tirozlar bilan murojaat qilishi mumkin. E'tiroz Mobil ilovadagi qo'llab-quvvatlash chati orqali To'lovchi haq-huquqlari buzilgan vaqtdan boshlab 10 kun ichida jo'natiladi. Agar To'lovchi To'lov kunidan boshlab 10 kun ichida asosli e'tirozlarini bildirmasa, To'lov joriy Qoidalarga muvofiq amalga oshirilgan va To'lovchining Humansga e'tirozlari yoq hisoblanadi.

4.5. To'lov doirasida bajarilmagan yoki to'g'ri bajarilmagan majburiyatlar uchun, shuningdek, quyidagi vaziyatlar natijasida keltirilgan ziyon uchun Humans mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi:

- To'lovchi, Abonent, Karta Egasi yoki uchinchi shaxslar tomonidan To'ldirish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan Humans'ning, uning hamkorlarining yoki uchinchi shaxslarning axborot xavfsizligi yoki qurilmalarining normal faoliyatini qonunga zid tarzda buzishga qaratilgan harakatlari, shuningdek, ruxsatsiz To'ldirishni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar uchun;
- Koddagi xatolar, kompyuter viruslari va Humans qurilmasidagi dasturiy ta'minotda boshqa kod fragmentlari tufayli Mobil ilova yoki Saytdagi buzilishlar;
- To'lovchiga bank va/yoki to'lov xizmatini ko'rsatuvchi banklar yoki to'lov tashkilotlaridagi qurilmaning buzilishi, shuningdek, boshqa qilingan/qilinmagan harakatlar oqibatida Humans To'ldirishni amalga oshirishi uchun kerak bo'lgan ma'lumotni olmaganida

5. YAKUNIY QOIDALAR

5.1 Joriy Qoidalar Saytda ular e'lon qilinishi sanasidan boshlab kuchga kiradi.

5.2. Humans bir tomonlama tartibda istalgan paytda Qoidalarini o'zgartirish yoki amalini to'xtatishga haqli. Humans Qoidalarni o'zgartirish yoki amalini to'xtatishi to'g'risida Sayt va (yoki) Mobil ilovada xabardor etadi.

5.3. Qoidalar amali Humans tomonidan muvofiq ma'lumotda ko'rsatilgan muddatdan boshlab to'xtatiladi yoki o'zgartiriladi.

5.4. Joriy Qoidalarda tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi muvofiq qo'llaniladi.